



O‘zbekistonda turizm.

Nutq uslublari.
So‘zlashuv uslubi.



TILAME

Fan- O‘zbek tili

O‘qituvchi- Kamaliddinova
Nigora Sirajiddinovna



REJA:

1

- O‘zbekistonda turizm

2

- Sayyohlik yo‘nalishlari

3

- Nutq uslublari. So‘zlashuv uslubi

4

- Topshiriqlar ustida ish

O‘zbekiston qadimiylar tarixiy shaharlari, boy me’moriy obidalari bilan jahonga mashhur. Mashhur Buyuk ipak yo‘li ham O‘zbekiston hududidan o‘tgan.

Keyingi yillarda respublikamizga keluvchi soyyohlarning soni borgan sari ko‘paymoqda va turizm sohasi rivojlanmoqda. O‘zbekistonda turizm sohasiga rahbarlikni O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi olib boradi.





Qo‘mitaning asosiy vazifasi turizm infratuzilmasini rivojlantirish, chet el sarmoyasini jalb qilib, zamonaviy turistik kompaniyalarni barpo etish, yangi sayyoqlik yo‘nalishlari ishlab chiqish, xizmatlar doirasini kengaytirishdan iborat.

Turizm sohasiga munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solish, turistik xizmatlar bozorini rivojlantirish, sayyoqlar va sayyoqlik faoliyat subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining «Turizm to‘g‘risida»gi Qonuni qabul qilingan.

Lug‘at	
soha - отрасль	yo‘nalish - направление
kengaytirmoq - расширять	munosabat - отношение
sarmoya - денежные средства	manfaat - польза, благо
jihatdan - в этом отношении	

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Turizm deganda nimalarni tushunasiz?
2. O‘zbekistonda sayyohlikni rivojlantirish uchun nimalar qilish mumkin deb o‘ylaysiz?
3. O‘zbekistonda sayyohlarni qiziqtiradigan qanday maskanlar bor?



TIIAME

Bilib oling!

Adabiy tilda 5 xil nutq uslublari bor: so‘zlashuv uslubi, badiiy uslub, publitsistik uslub, rasmiy uslub va ilmiy uslub. Har bir nutq uslubining o‘ziga xos xususiyatlari va qo‘llanish o‘rinlari bor.

Uyda, ko‘chada, insonlarning o‘zaro so‘zlashuvida qo‘llanadigan uslub *so‘zlashuv uslubi* deb ataladi. Bu uslubning adabiy til me’yorlariga rioya qilinadigan ko‘rinishi adabiy so‘zlashuv uslubi deb yuritilsa, bunday me’yorlarga rioya qilinmaydigan ko‘rinishi jonli so‘zlashuv uslubi deb ataladi. Jonli so‘zlashuv uslubi erkin uslub, unda shevaga hos so‘zlar ham qo‘llanadi. So‘zlashuv uslubidagi nutq ko‘pincha dialog shaklida bo‘ladi.



TIIAME

1-mashq. Berilgan gaplarni o‘qing. So‘zlashuv uslubiga xos bo‘lgan so‘z va iboralarni aniqlang.

1. - Hoy chiptachi, ma, bitta chipta ber! - dedi Qumri xola.
2. Avtobus Oqqo‘rg‘onga boradimi? - deb so‘radi otaxon.
3. - Bizziyam apketing, - dedi qo‘l siltab Mehri.
4. Salima: «Yu-u-r!» - deb bolasining qo‘lidan ushlab avtobusga chiqardi.
5. Obbo! Hamma ishni do‘ndiribsiz-da.
6. Mazza qilib ariqda cho‘mildik.
7. Anvar aka hammani to‘yga chaqirdi.
8. «Oldingi gaplarni unut», - dedi Dilbar xola.
9. Baland ovozda: «Rahmat, kattakon!» - dedim.



TIIAME

2-mashq. Berilgan gaplarni o‘qing. So‘zlashuv uslubiga xos bo‘lgan so‘z va iboralarni aniqlang va yozing.

1. Ana huv-v adirning nariyog‘ida Ko‘kabuloq qishlog‘i bor.
2. Ha, og‘zing qulog‘ingda, haqqining oldingmi?
3. U og‘zidagi oshini oldirib o‘tiradigan anoyilar nusxasidan emas.
4. Maktabimiz o‘quvchilari hasharda binoyiday ish-lashdi.
5. Salima kinoteatr chiptaxonasidan chipta olish uchun pulini uzatib: «Beshinchidan ikkita», - dedi.
6. Hammasi ham mayli-ya, bolam, burnog‘i yilgi ish sira-sira esidan chiqmadi.
7. «Ketaaaa qool», - deb Solijon bolaga ishora qildi.
8. Misol uchun, Naziraxon sayyoohlarga qishlog‘imiz tarixini gapisra, ular O‘zbekistonda shunday joy bor ekan, deb ko‘rgani kelishadi, - dedi mahallamiz oqsoqoli.
9. «Iye, iye, ana xolos, kap-katta bola-ya» - qo‘liga ko‘tarib ovuta boshladи.



TIIAME

1-topshiriq. Berilgan gaplarni ona tilingizga tarjima qiling.

1. Intizomsiz kishi hech qayerda muvaffaqiyatga erisha olmaydi.
2. Har yerda va har qachon ilm kerak.
3. Aqldan ortiq boylik yo‘q.
4. Odamning yuzi oftobdan issiq.
5. O‘zing o‘tirgan shoxga bolta urma.
6. Dunyoda shunday aziz bir inson borki, biz undan hamisha qarzdormiz.

2-topshiriq. Maqollarni o‘qing,
mazmunini tushunib oling. Maqollarni yod
oling.

Bilim - baxt belgisi.

Haqiqat egiladi,
lekin sinmaydi.

Maqtanchoq -
bekorchiga
o‘yinchoq.

Shirin so‘z –
asaldan shirin.





TILAME

O‘zbekistonda ko‘plab sayyoohlarni qabul qilish va ularga xizmat ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘lgan mehmonxonalar soni tobora o‘sib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi sayohat qilish turiga qarab, quyidagi sayyoohlilik yo‘nalishlarini ishlab chiqqan.



Birinchi yo‘nalish:
Toshkent, Samarqand,
Buxoro, Xiva. Ikkinchi
yo‘nalish: Toshkent,
Samarqand, Buxoro,
Shahrisabz. Bu yo‘nalishlar
eng qadimiy yodgorliklarga va
boshqa madaniy obidalarga
tashrif bilan bog‘liq. Ekologik
turizm yo‘nalishi Chimyon,
Chortoq dam olish va davo-
lanish oromgohi, Zoomin
qo‘riqxonasi, Buxoro
viloyatidagi qo‘riqxonalarni
o‘z ichiga oladi.



Lug‘at	
imkoniyat - возможность	obida - памятник старины
yodgorlik - памятник, реликвия	qo‘riqxona - заповедник
madaniy - культурный	



Bilib oling!

So ‘zlashuv uslubida gapdagi so‘zlar tartibi ancha erkin bo‘ladi. Piching, kinoyalar ishlatiladi. Ko‘proq sodda gaplar, to‘liqsiz gaplar, undalmali gaplardan foydalilaniladi.

Masalan: Kep, qoling! Obbo, mashg‘ulotga kech qoldingiz-ku!





3-mashq. So‘zlashuv uslubiga xos bo‘lgan gaplarni ko‘chirib yozing.

«Bezovta bo‘lmang, ustoz, hamma aytganlaringizni bajaramiz», - dedi Sardor. 2. O‘zbek xalq me’morchiligining shuhrati butun jahonga tanilgan. 3. Komil, qani, yugur uyga. Opangni opkegin baqqa. 4. Ona quyosh, uning mehr-tafti hech qachon so‘nmaydi. 5. Esim qursin, ustozim bergen topshiriqlarni unutibman-a. 6. O‘qish insonni ulug‘laydi, buyuk kashfiyotlarga yo‘l ochadi. 7. Hayronman senga, ukaginam, oddiy ertakni ham o‘qiy olmaysan. 8. Ayting-chi, bu masjid asl holida saqlanganmi yoki qayta ta’mirlanganmi?



3-topshiriq. Berilgan gaplarni ona tilingizga tarjima qiling.

1. Qalb salomat bo‘lsa, aql ham, fikr ham salomat bo‘ladi. 2. Sen bormasang, men bir o‘zim u yerda nima ham qildim. 3. U shunday tez gapirdiki, hech kim e’tiroz bildira olmadi. 4. Shahrimizga har yili minglab sayyoohlar kelishadi. 5. O‘zbekistonda chiroyli joylar ko‘p. 6. Men kitobni bir kechada o‘qib bitirdim. 7. Men bugun kutubxonaga bormoqchiman.





© Trend News Agency





TIAME





Uy vazifasi. «O‘zbekiston bo‘ylab sayohat» mavzusida kichik matn tuzing.



E‘tiboringiz uchun
rahmat!